



**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

EXPRESSION OF PATRIOTIC QUALITIES IN FOLKLORE

Sheripbayeva Shohina

1st-year student, Faculty of Uzbek Philology, Karakalpak State University

Research Advisor: Assoc. Prof. Doshanova G.

Abstract: This article discusses the artistic depiction of the feeling of patriotism in the genres of folklore. In particular, it presents scientific conclusions on how the theme of the motherland and its love is expressed in epics, fairy tales, and folk proverbs.

Keywords: epic (doston), fairy tale, proverb, aesthetic ideal, genre, thinking, popularity (folksiness), nationality.

**XALQ OG‘ZAKI IJODIDA VATANPARVARLIK FAZILATLARINING
IFODALANISHI**

QQDU O‘zbek filologiyasi fakulteti

1- kurs talabasi Sheripbayeva Sh

Ilmiy rahbar:dots.Doshanova G

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi janrlarida vatanparvarlik tuyg‘usining badiiy tasvirlanishi haqida fikrlar bayon qilingan. Xususan, dostonlarda ertak janrida va xalq maqollarida vatanni sevish va vatan mavzusi qaytarzda ifodalanganligi haqidagi ilmiy xulosalarimiz berilgan.

Kalit so‘zlar: doston, ertak, maqol, estetik ideal, janr, tafakkur,xalqchillik, milliylik.

Xalq og‘zaki ijodi-millatning o‘tmishi, buguni va kelajagini bog‘lab turuvchi oltin ko‘prikdir. Folklor namunalrida Vatan mavzusi shunchaki hududiy tushuncha emas, balki muqaddas ona siymosi va g‘urur timsoli darajasiga ko‘tarilgan. Ota- bobolarimiz asrlar davomida o‘zlarining vatanparvarlik tuyg‘ularini maqollar, dostonlar, va afsonalar orqali sayqallab kelishgan.





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

Folklorning eng yirik janri bo‘lmish dostonlarda Vatan qahramoning kuch quvvat manbai. Masalan Alpomish dostonida Hakimbekning barcha sarguzashtlari ortida Boysun-Qong‘irot sog‘inchi turadi. U yetti yil davomida Qalmoq yurtida zindonda qolib ketadi va uni vatan sog‘inchi qiynaydi. Barchinoyning ham alplarga shart qo‘yishi o‘zi uchun yor tanlash emas vatanini himoya qiluvchi mard va jasur alpni tanlab olish edi. Folklor namunalarida vatanparvarlik faqatgina dushman ustidan g‘alaba qozonish emas, balki kerak bo‘lganda yurt istiqboli uchun o‘zini qurbon qilish bilan ham o‘lchanadi. Bu islomiy talimotda ham ko‘rsatib o‘tilgan. Bu borada “Shiroq” afsonasi alohida ahamiyatga ega. U Eron shohi Droni va uning son - sanoqsiz qo‘shini jasorat bilan cho‘ning o‘rtasiga boshlab boradi u vatani uchun xiyladan foidalanadi ammo u qulog‘i va burnidan ayriladi Shiroqning bunday jasoratidan vatan uchun jonidan kechishini ko‘rgan qo‘mondonlar hayratda qoladilar. Necha asrlar o‘tsa ham Shiroq xalq xotirasida vatan himoyasidagi matonat ramzi bo‘lib kelmoqda

Folklor janrlaridan biri ertaklarda ham vatan mavzusi keng va o‘rinli tarannum qilinib kelingan. O‘zbek xalq ertaklaridan “Vatan qadri”, “Uch mard o‘g‘lon” ertaklari ana shunday ertaklar sirasiga kiritish mumkin. “Vatan qadri” ertagida qushlar va hayvonlar o‘z Vatani uchun kurashadilar, ikkinchi ertakda ham uch bahodir yigit vatani uchun dushmanlar bilan mardonavor kurashish syujetlari badiiy ifodasini topgan.

O‘zbek folklorining kichik janrlaridan biri maqollarda ham Vatan mavzusi badiiy- g‘oyaviy tarzda atroflicha tasvirlanadi. Ajdodlarimiz xalq maqollarida o‘z turmush tajribalari va hayotdan olgan saboqlarini realistik tarzda ifodalaganlar. Masalan: “Bulbul chamanni sevar, odam-vatanni”, “Vataning tinch-sen tinch”, “O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha o‘z yurtida gado bo‘l” kabi xalq ibrati namunalari bejiz aytilmagan.

Vatan tushunchasi har bir inson uchun muqaddas bo‘lib, u ona, oila, til va millat bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek xalq maqollarida vatan ko‘pincha ona bilan qiyoslanadi. “Ona yurt — oltin beshiging”, “O‘zga yurtda sulton bo‘lguncha, o‘z





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

yurtingda cho‘pon bo‘l’ kabi maqollar shundan dalolat beradi. Bu maqollarda insonning o‘z yurtiga bo‘lgan muhabbati va sadoqati ulug‘lanadi. Maqollarda vatanning qadri chet elda, begona yurtda yanada chuqurroq his qilinishi ta’kidlanadi. “El ichida el bo‘l, eldan chiqma”, “Yurtidan ayrilgan yigit — qush qanotsiz” kabi maqollar insonning jamiyat va vatan bilan uzviy bog‘liqligini ifodalaydi. Bu yerda vatandan ayrilish insonning ma’naviy yetimlikka duchor bo‘lishi sifatida talqin qilinadi.

Maqollarda vatanga sadoqat bilan bir qatorda, unga nisbatan mas’uliyat hissi ham ifodalanadi. Inson faqatgina vatandan manfaat olish emas, balki unga xizmat qilish, uni rivojlantirish uchun ham mas’ul ekanligi uqtiriladi. Shu bois xalq maqollari nafaqat didaktik, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida vatan mavzusi keng va chuqur yoritilgan bo‘lib, unda xalqning asrlar davomida shakllangan ma’naviy qadriyatlarini, vatanparvarlik tuyg‘ulari va hayotiy tajribasi aks etadi. Maqollar orqali yosh avlodga vatanni sevish, unga sodiq bo‘lish va uni asrash g‘oyalari singdiriladi. Shu bois maqollar milliy tarbiya vositasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1987.
2. Rahmonov N. O‘zbek folklori. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Mirzayev T. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 2010.
4. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent, 2015.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
6. O‘zbek adabiyoti tarixi (1-jild). – Toshkent: Fan, 1977.

